

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI



EKRAN TASVIRINING AUDIO VIZUALIZATSIYASI
FANI BO‘YICHA

SILLABUS

Kunduzgi bo‘lim uchun

Bilim sohasi:	600000	- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
Ta‘lim sohasi:	610000	- Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari
Ta‘lim yo‘nalishi:	60611100	- Televizion texnologiyalar (“Audiovizual texnologiyalar”)

Toshkent – 2025

Modul / FAN SILLABUSI

“Televizion texnologiyalar (“Audiovizual texnologiyalar”) yo‘nalishi

Fan nomi:	Ekran tasvirining audio vizualizatsiyasi
Fan turi:	Tanlov fan
Fan kodi	TTE*
Bosqich:	3
Semestr:	6
Talim shakli:	Kunduzgi
Mashg‘ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	180
Ma‘ruza	42
Amaliy mashg‘ulotlar	30
Laboratoriya mashg‘ulotlari	-
Seminar	-
Mustaqil ta‘lim	108
Sinov birligi miqdori:	6
Baholash shakli:	Ijodiy ish
Fan tili:	O‘zbek

Fanning maqsadi (FM)

FMI	<p>Ushbu fan tinglovchiga ekran ijodining audiovizual ifodalanishiga oid tushunchalar haqida umumiy tasavvur beradi. Audiovizual madaniyat shaxsning ijtimoiylashuvi, ya‘ni jamiyatdagi ijtimoiy tajriba, bilimlar, me‘yorlar, urf-odatlar, an‘analalar, odob-axloq va madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayoni uchun mas‘ul hisoblanadi. Bu jihatlarni jamlanib, jamiyatning umumiy madaniy qatlamini shakllantiradi. Zamonaviy davrda ushbu madaniy qatlamning ifodasi aynan audiovizual vositalar orqali amalga oshiriladi.</p> <p>Kurs tinglovchilarga audiovizual madaniyat makonida yo‘nala olish, audiovizualizatsiya rivojlanish bosqichlarini to‘g‘ri aniqlash, zamonaviy texnik vositalar hamda ekran va media makonidagi an‘anaviy ijtimoiy-madaniy mezonlarga tayangan holda mustaqil audiovizual kontent yaratish ko‘nikmalarini shakllantiradi.</p>
------------	---

Fanni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich bilimlar

1.	<p>Vizual kontent uchun audiotasvir bilan ishlash Talaba vizual kontentni shakllantirish qoidalarini bilishi, ekran janrlarida yo‘nalish o‘lchovini bilishi, vizualizatsiya nazariyasi va tarixini bilishi lozim.</p>
2.	<p>Dasturlash asoslari Talaba shaxsiy kompyuterda ishlashni va dasturlash asoslarini bilishi</p>

kerak, bu bilimlar unga musiqa kompozitsiyalarini yaratish hamda semplar (namunaviy tovushlar) bilan ishlashda yordam beradi.

Ta'lim natijalari (TN)

Bilimlar jihatdan:

TN1	Vizual kontent uchun mos musiqa bezagini to'g'ri tanlash bo'yicha tajriba o'rttirish
TN2	Teletayyorlov jarayonida audiovizual qatorni to'g'ri tashkil qila olish ko'nikmasi
TN3	Turli xil ovoz yozuv turlariga mos audiotexnikani to'g'ri tanlay olish ko'nikmasi
	Ovoz yozishda mavjud texnologik vositalardan to'g'ri foydalanish
TN4	Ovoz yozish texnikasini puxta egallagan bo'lish
TN5	Sun'iy intellektdan foydalanib audiotasvir sifatini oshira olish ko'nikmasi
TN6	Ovoz bilan ishlash dasturlarini yaxshi bilish
TN7	Kino va telemahsulot dramaturgiyasida ovoz orqali kerakli urg'uni qo'yish ko'nikmasi
TN8	Dublaj dasturlarida ishlash texnikasini to'g'ri egallagan bo'lish
TN9	Ovozli eksplikatsiya (izohli ro'yxat) tuzish bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish
TN10	Vizual kontent uchun mos musiqa bezagini to'g'ri tanlash bo'yicha tajriba o'rttirish

Fan mazmuni		Soat
Mashg'ulotlar shakli: Ma'ruza (M)		
M1	Kirish. Musiqiy hamroh tovushlar va vizual media haqida umumiy tushuncha <i>Audiovizual san'at mohiyati va uning media bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.</i>	2
M2	Televidenie va kino uchun musiqaning roli: tarixi va nazariyasi <i>Musiqaning ekranda paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va nazariy yondashuvlari.</i>	2
M3	Kinoda musiqiy-shovqinli bezak: xususiyatlar va o'ziga xoslik <i>Kino mahsulotlarida ovoz effektlari va musiqaning integratsiyasi o'rganiladi.</i>	2
M4	Televideniya musiqiy-shovqinli bezak: o'ziga xos jihatlari <i>Televizion formatlarga xos bo'lgan tovush va musiqiy dizayn turlari.</i>	2
M5	Musiqa san'ati va musiqiy hamrohlik <i>Kompozitsiya asoslari va vizual mazmunga mos musiqa tanlash ko'nikmalari.</i>	2

M6	Sun'iy intellekt vositalari (AI tools) <i>AI orqali musiqa, tovush, va effektlar yaratish texnologiyalari.</i>	2
M7	Kengaytirilgan haqiqatda (AR) tovushlar <i>AR muhiti uchun moslashgan musiqa va tovush ishlanmalar.</i>	2
M8	Virtual haqiqatda (VR) tovush: musiqa, shovqinlar, maxsus effektlar <i>VR tajribasini kuchaytiruvchi audiovizual elementlar.</i>	2
M9	Kengaytirilgan haqiqat (XR) uchun tovush: musiqa, shovqinlar, effektlar <i>Kengaytirilgan tajriba uchun interaktiv audio komponentlar.</i>	2
M10	Virtual muhitlar: o'yinlar va Web muhiti <i>Virtual interfeyslar va ularning audiovizual yondashuvlari.</i>	2
M11	O'yin muhiti uchun to'liq tovush paketi yaratish <i>Gameplay uchun maxsus tovushlar, fon musiqasi va effektlar ishlab chiqish.</i>	2
M12	Media muhiti: amaliy foydalanish uchun tanlash <i>Loyihaga mos media platformasini tanlash asoslari.</i>	2
M13	Tovushli hamrohlikning batafsil konsepsiyasini ishlab chiqish <i>Ovozli dizayning asosiy elementlari va strategiyasi.</i>	2
M14	Tovushli hamrohlik konsepsiyasini aniqlashtirish <i>Ovoz tafsilotlarini chuqurlashtirish va sahnalarga moslashtirish.</i>	2
M15	Media makonida o'z konsepsiyasini qurish <i>Yakuniy audiovizual loyihani ishlab chiqish uchun mustaqil yondashuv.</i>	2
M16	Sound design: tovush dizayni asoslari <i>Tovushlar yaratish, montaj qilish va ishlatish texnikasi.</i>	2
M17	Audiovizual loyiha yaratish: boshlang'ich bosqich <i>O'z loyihasining g'oyasi va asosiy elementlarini rejalashtirish.</i>	2
M18	Audiovizual loyiha: ssenariy rejasi va tovush eksplikatsiyasi <i>Loyihani aniq ssenariy asosida ishlab chiqish.</i>	2
M19	Audiovizual loyiha: amalga oshirish bosqichi <i>Ijodiy g'oyani texnik va estetik jihatdan havotga tatbiq qilish.</i>	2
M20	Musiqiy video ishlab chiqish: konsepsiya, ssenariy va ijro <i>Musiqiy roligni yaratish bosqichlari: rejissura va postproduserlik ishlari.</i>	2
M21	Musiqiy video va media makoni: video installyatsiya <i>Musiqa va vizual san'at sintezini media ko'rgazmalarda qo'llash.</i>	2
Ittiroq:		42
Mashg'ulotlar shakli: Amaliy ish (A)		Soat
A1	Televizion efir uchun musiqiy ishlab chiqarish.	2
A2	Hujjatli filmlar uchun musiqiy va shovqinli bezak.	2
A3	Musiqa va shovqin ishlab chiqarishda sun'iy intellekt (AI).	2
A4	Animatsiyada AI texnologiyasining amaliy qo'llanilishi.	2

A5	Media-instalatsiyalarda AI'ning amaliy qo'llanilishi.	2
A6	Animatsiya uchun ssenariy va musiqiy ekspilikatsiya yaratish.	2
A7	Film ishlab chiqarishda ijodiy guruh faoliyati.	2
A8	Film va tele-ishlab chiqarishda texnik guruh faoliyati.	4
A9	Virtual shovqin fonotekalari: amaliy qo'llanilishi.	2
A10	Virtual tovush fonotekalari: amaliy qo'llanilishi.	2
A11	Hujjatli filmda tovush dramaturgiyasi.	2
A12	Filmda bosh va ikkinchi darajali qahramonlar uchun musiqiy-shovqinli dramaturgiya yaratish.	2
A13	Animatsion qahramon uchun musiqiy ekspilikatsiya tuzish.	2
A14	Kompyuter o'yinlari yaratishda innovatsion audiotik yondashuv.	2
A15	Shaxsiy musiqiy-shovqinli fonotekani yaratish.	2
Итого:		30
Mustaqil ta'lim (M)		
MT1	Ijtimoiy rolik uchun musiqiy-shovqinli partitura tuzish	12
MT2	Animatsion film uchun musiqiy-shovqinli partitura tuzish	12
MT3	Tovush yozuvda shovqinlar bilan ishlash	12
MT4	Virtual shovqin fonotekasi bilan ishlash	12
MT5	Tayyor vizual rolikka mos musiqa tanlash	12
MT6	Musiqa bilan ishlashda sun'iy intellektdan foydalanish	12
MT7	Teatr sahna asarlarini audiovizualizatsiya qilish	12
MT8	Media ko'rgazma uchun audio kontent ishlab chiqish	12
MT9	Animatsiyalarda shovqinli hamroh tovushlarni yaratish	12
Итого:		108

Ta'lim strategiyasi

Ekran tasvirining audio vizualizatsiyasi kursini o'qitish ta'limning kredit tizimi asosida ma'ruza, amaliyot mashg'ulotlari, taqdimotlar, hamda mavzu bo'yicha vazifalar va mustaqil topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

Ma'ruza, amaliyot ishlariga oid o'quv materiallarida ko'rsatilgan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlar beriladi, amaliyot ishlarini bajarish va natijalarni hisoblash tartibi tushuntiriladi. Kurs bo'yicha qo'yilgan o'quv materiallari talabalar tomonidan mustaqil o'rganiladi, amaliyot ishlari talabalar tomonidan individual tarzda bajariladi.

Talabalar quyidagi materiallardan foydalanish imkoniga egadirlar:

- Elektron shakldagi ma'ruza matnlari;
- Har bir mavzuga doir taqdimot materiallari;
- Amaliyot mashg'ulotlariga doir uslubiy ko'rsatmalar;
- Har bir dars mavzusi yuzasidan nazorat savollari;
- Elektron shakldagi darsliklar va qo'llanmalar.

Ma'ruza davomida, talabaga taqdimot materiallari orqali mavzu yuzasidan kerakli bo'lgan konsepsiyalar yetkazib beriladi. Talabalarga mavzuni yanada

mustahkamlashlari uchun prezentasiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa o'quv-uslubiy mahsulotlardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi. Talabalarning mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish maqsadida, har bir mavzudan so'ng nazorat savollari beriladi.

Amaliyot mashg'ulotlarda har bir mavzu bo'yicha masalalarni yechish bo'yicha materiallar, prezentasiyalar, ko'rsatmalar talabalarga taqdim etiladi, shuningdek, mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish maqsadida topshiriqlar beriladi.

Ma'ruza va amaliyot mashg'ulotlarining barcha mavzularini to'la o'zlashtirgan talabalarga yakuniy nazoratda ishtirok etishga ruxsat etiladi. Talaba semestr oxirida universitetga kelib, yakuniy nazorat topshiradi.

Reyting baholash turlari	%	O'tkazish vaqti
Joriy baholash:	20	
Amaliy mashg'ulotlarda faolligi, savollarga to'g'ri javob berganligi, amaliy topshiriqlarni bajarganligi uchun: 1-amaliy ish uchun: 10% 2-amaliy ish uchun: 10%	20	Semestr davomida
Oraliq baholash:	30	
Oraliq nazorat yozma ish (ma'ruzachi o'qituvchi tomonidan qabul qilinadi). Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatlil bajarilishi:	15	14-hafta
- referat tayyorlash: 5 % - taqdimot tayyorlash va himoya qilish: 10 %	15	Semestr davomida
Yakuniy nazorat	50	16-hafta
JAMI:		100

Asosiy adabiyotlar	
1.	Millerson G. Televizion ishlab chiqarish va rejissyorlik. Amsterdam; Boston: Focal Press/Elsevier. 2009-yil.
2.	Абдурахимов А., Кучкарбеков Т., Сабурова Н., Исмаилов К. Основы управления кинопроизводством. Ташкент, издательство «Алокачи», 2018, 160 с.
3.	Базарбаев Б.Ж., Салиев М.М., Исмаилов К.С. «Цифровая кинематография и монтаж» Ташкент. Коммуникатор. 2017.
Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar	
1.	Базарбаев Б., Хидирова К., Ташмухамедова Г., Маризаева Н., «Цифровая фотография» Т.: «Алокачи», 2017, 346 с., ISSN 978-9943-5144-4-7
2.	Базарбаев Б.Ж., Ташмухамедова Г.Х. «Технологии построения кинотелекомпозиций». Ташкент. Издательство «Алокачи». 2018, 248 с.

Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

Muallif:	Boymurodov Bobur
E-maii:	ntatalee82@list.ru
Telefon raqami:	+998909801687
Tashkilot:	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti, "Televizion va media texnologiyalar" kafedrası
Taqrizchilar:	Xidirova K. – O'zbekiston San'at va madaniyat instituti "Ovoz rejissurasi va kinematografiya" kafedrası dotsenti, san'atshunoslik fanlari nomzodi. Ismoilov K. – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Texnika universiteti "Televizion va media texnologiyalar" kafedrası dotsenti, fanlar doktori.

Mazkur sillabus universitet Kengashining 2025-yil 29 - 09 dagi 6/5/950/951 -sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur sillabus Televizion texnologiyalar fakulteti Kengashining 2025-yil 22 - 09 dagi 9 -sonli yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Mazkur sillabus Televizion va media texnologiyalar kafedrasining 2025-yil 22 - 09 dagi 39 -sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

O'quv boshqarma boshlig'i

Kafedra mudiri

Tuzuvchi

A. Ergashev

F. Nuraliyev

B. Boymurodov